

TEXNOLOGIK TA'LIMDA MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MAQSADIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM VOSITASI SIFATIDA QOLLASH

Muxamedova Xolida Baxtiyorovna

**Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Professional
ta'lim fakulteti Texnologik ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi.**

Nabiyeva Gulnora Abdivahobovna

**Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Professional
ta'lim fakulteti Texnologik ta'lim metodikasi kafedrasida talabasi**

Annotatsiya: Pedagogik tizimda maqsaddan natijagacha bo'lgan jarayonda metod, shakl, mazmun, texnologiya, vositalar moslik darajasining ko'p yoki kamligi pedagogik jarayonning samarasini bildiradi.

Kalit so'zlar: педагогика, электрон почта, интернет, Web-технология, мультимедия, масофавий ўқитиш, технологик таълим, ахборот технологиялари, компьютер, метод.

Аннотация: В процессе от цели к результату в педагогической системе высокий или низкий уровень совместимости метода, формы, содержания, технологии и инструментария свидетельствует об эффективности педагогического процесса.

Ключевые слова: педагогика, электронная почта, Интернет, Web-технологии, мультимедиа, дистанционное образование, технологическое образование, информационные технологии, компьютер, метод.

Abstract: In the process from goal to result in the pedagogical system, a high or low level of compatibility of method, form, content, technology and tools indicates the effectiveness of the pedagogical process.

Key words: pedagogy, e-mail, Internet, Web technologies, multimedia, distance education, technological education, information technology, computer, method.

Pedagogik jarayon pedagogik tizimning asosiy rol o'ynovchi qismidir. Pedagogik tizim esa bir nechta kompetentlarni o'z tarkibiga mujassamlashtirgan o'zgarishlarda ham barqaror bo'lgan yangilik kiritilganda o'z kuchini oldingi xususiyatini yo'qotib yangi xususiyatlarini hosil qiluvchidir.

Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug'ullanuvchi texnologiyalarni kompyuterlar asosida joriy etish, ya'ni belgilangan faoliyat turini amalga oshiruvchi kompyuter va unda joriy etilgan dasturiy ta'minotni yuritish majmuasi axborot texnologiyasi deb yuritiladi.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish to'laligicha qonuniyatga mos hodisadir. Faqat ta'limda ulardan foydalanishning samaradorligi o'qituvchi – o'quvchi o'zaro aloqasi tizimida kelib chiqadigan murakkab o'zaro aloqalarning o'rnini bosishi, haqidagi aniq tasavvurlar bilan bog'liq. Axborot texnologiyalari o'qitishning maqsad va mazmunini o'zgartiradi, uning yangi metodlari va tashkiliy masalalari paydo bo'ladi.

Zamonaviy texnologiyalari (elektron pochta, internet, Web-texnologiya, multimediya texnologiya, masofaviy o'qitish va boshqalar) o'quv jarayonida foydalanish ularning ilmiy-metodik asoslarini chuqur o'rganishni talab etadi. Jumladan bu jarayonga "inson - komp'yuter" tizimi sifatida qarash bir qator o'z echimini kutayotgan muammolarni keltirib chiqaradi. Bu tizimda, boshqa har qanday tizimdagi kabi boshqaruvchi va boshqariluvchi ob'ektlar bo'lib, ular orasida to'g'ri va teskari aloqalar mavjuddir. Ushbu tizimga yangi ob'ekt sifatida kiritilgan va axborot texnologiyasining asosini tashkil etgan zamonaviy komp'yuter o'quv jarayonidagi aloqalari o'z ta'sirini o'tkazadi, bu esa o'z navbatida ta'lim berish metodida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. [1]

Pedagogik tizimda maqsaddan natijagacha bo'lgan jarayonda metod, shakl, mazmun, texnologiya, vositalar moslik darajasining ko'p yoki kamligi pedagogik jarayonning samarasini bildiradi. Bir qancha pedagogik olimlarning fikricha pedagogik va axborot texnologiyasining va unda inson omili, munosabat, qo'yilgan talablar, usul va uslublar, pedagogik tizimning natijasini ozgina bo'lsa ham samarali tomonga siljishiga qaratilgan bo'lib, 15-20 % ga o'stirishga olib kelishdan iboratdir.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyasini olib kirish zaruriyati 70-80 yillardan boshlab (o'quvchilarni mashg'ulotga qiziqib ketishi pasayib ketgach) dars metodlarini shakl va tiplarini o'zgartirish, yangilik kiritishdan boshlandi. Darslarga axborot texnologiyasini (kompyuter, filmskop, kadaskop va h.k) olib kirish hozirda ta'lim muassasalarda to'liq axborot texnologiyasiga o'tish (internet, multimediya, elektron pochta va h.k) interfaol usullarni joriy etish bilan davom etmoqda.

Texnologiya darslarida kompyuterli axborot texnologiyalaridan foydalanilganda tayyorlanadigan buyumlarni keng assortimenti namunalarini o'quvchilarga ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'lib, o'quvchilarning tasavvurini boyitadi va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarni ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari bilan yaqindan tanishtirish, videorolik va audiovizual vositalarni qo'llash o'quvchilar ko'z o'ngida mehnat jarayonini yaqqol namoyish etish ularning amaliy topshiriqni bajarishlari uchun ahamiyatlidir. [2]

Ayrim umumta'lim maktablarida ba'zi bir amaliy topshiriqlarni bajarishning imkoni etarli bo'lmagan sharoitda kompyuterli ta'lim vositalardan foydalanib, texnologik jarayonlarni animasiya ko'rinishlari taqdim etilganda, o'quvchilarning jarayonni tushunish va tasavvur qilish imkoniyati yaratiladi.

Demak, texnologiya mashg'ulotlarini tashkil etishda o'qituvchining kompyuter vositalaridan keng foydalanishi samarali bo'lishi tabiiy bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

O'qitishning axborot texnologiyalaridan didaktik vosita sifatida ta'lim tizimida foydalanishning samaradorligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. Zamonaviy o'qitishning axborot texnologiyalari o'quvchilarga axborotlarning noan'anaviy manbaalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2. O'qitishning axborot texnologiyalari qo'yilgan metodik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o'qituvchiga o'qitishning turli shakllaridan va ularning

majmuasidan foydalanish, ya'ni zaruriy ta'lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O'qitishning axborot texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchi kompyuterlashtirilgan o'qitish va nazorat qilish dasturlarini sharoitdan kelib chiqib o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi.

3. Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimida foydalanishga asoslangan o'qitishning axborot texnologiyalarini qo'llash natijasida o'qituvchilar o'zlarining axborot bilan ta'minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi axborot jamlamalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilarga esa quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- O'quvchining mustaqil holda erkin fikrlash malakasini shakllantiradi;
- Ijodkorlik va tashabbuskorlik muhitini vujudga keltiradi;
- O'quvchini faollashtiradi;
- O'zlashtirish ortadi; (vizual ma'lumot xotirada yaxshi saqlanadi)
- O'quvchi olgan bilimlarini hayotga tadbiiq etishga imkoniyat yaratadi.

Texnologiya fanini o'qitishda metodlarning va usullarning o'zaro o'rin almashib turishi darsning jozibadorligi, uning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib, bunda o'qitishning zamonaviy metod va usullaridan samarali foydalana bilmasdan darsni zerikarli va samarasiz o'tishiga sabab bo'lish mumkin. [3]

Shu o'rinda, buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning ta'lim jarayoni to'g'risidagi quyidagi fikrlarini eslash o'rinlidir: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Bir xillik zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas boshqa bir bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi, tomosha qilgisi keladi, har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak. O'zbekiston. 2017 y.

2. Х.Б.Мухамедова, М.Д.Абдумажидова. Обучение технологии и его назначение в жизни человека и в обществе. Научный Фокус. Международный современный научно-практический журнал. № 1 (100) май. Москва 2023 г.

407-409- б. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/issue/view/20>

3. Х.Б.Мухамедова. Формирование творческой компетентности и учащихся по технологии в общеобразовательных школах. Вестник науки и образования. Российская Федерация. Журнал импакт-фактор № 4 (135), 2023 год. 97-99-бетлар. HTTP://SCIENTIFICJOURNAL.RU

КОММУНИКАТИВНЫЕ РЕСУРСЫ ИТ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Хамидова Нигора Тулкуновна,
доцент, ТГПУ имени Низами, Ташкент, Узбекистан

khamidova72@list.ru

Махкамбаев Бекзод

студент направления «Информационные системы и технологии», ТГПУ
имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассмотрена проблема применения информационно-коммуникативных технологий в процессе изучения русского языка как неродного, а также описываются положительные факторы применения ИКТ в формировании речевых навыков студентов.

Ключевые слова: технология, компьютер, электронная почта, проект, презентация, Интернет-ресурсы. телеконференция (форум), текстовые и аудиочаты, гостевые книги, сетевые дневники, средства IP-телефонии, социальные сервисы.

Annotation: This article discusses the problem of using information and communication technologies in the process of learning Russian as a non-native language, and also describes the positive factors of the use of information technology in the formation of students' speech skills.